




SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rt va o'rt maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020-2021- o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rt va o'rt maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.


O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.


SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Ma'lumot uchun: O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)




Tumanlar kesimida akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshida)





SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni (o'quv yili boshiga kishi)



Akademik litsey o'quvchilarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (2021-2022- o'quv yili boshida ming kishi)



Surxondaryo viloyatida 2020-2021- o'quv yili boshida akademik litseylarda jami **1,6** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Tumanlar bo'yicha, Termiz shahrida o'quvchilar soni boshqa tumanlarga nisbatan ko'proq (**1,1** ming kishi).

SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Qiz bolalar
29,9 %

Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning 29,9 % qizlar, 70,1 % ini o'g'il bolalar tashkil etadi.

O'g'il bolalar
70,1 %




Akademik litsey o'quvchilarining tumanlar bo'yicha gender taqsimoti, % (2021-2022- o'quv yili boshida)




SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litsey o'qituvchilari (o'quv yili boshida, kishi)

Tumanlar bo'yicha




Surxondaryo viloyati



2021- yilda akademik litseylarda dars beradigan o'qituvchilar soni **146** nafarni tashkil etdi. Tumanlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Termiz shahrida – **115** nafar, eng kami – Jarqo'rg'on tumanida – **31** kishi qayd etilgan.

2020-2021- y.


2021-2022- y.



**Akademik litseylar o'qituvchilarining
gender taqsimoti
(2021-2022-o'quv yili boshiga)**

Akademik litseylarda jami o'qituvchilar soni 100 foiz deb olinsa, ularning **41,1** foizini ayollar, **58,9** foizini erkaklar tashkil etadi.


**O'qituvchilarning tumanlar bo'yicha gender
taqsimoti, kishi**




SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



Kasb-hunar maktablarini tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda* (2021-2022- o'quv yili boshiga)




2021-2022- o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatida **28** ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Sho'rchi tumanida (**3** ta) qayd etilgan.

*shu jumladan madaniyat va san'at maktablari qo'shilgan holda


SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha 2021-2022- o'quv yili boshiga



Surxondaryo viloyati



2021-2022- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **10,9** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Denov tumanida – **2,0** ming nafar, eng kami Muzrabot tumanida – **4,4** ming nafar.

SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Qiz bolalar
23,3 %

Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar 100 foiz deb olinsa, ularning 23,3 foizini qizlar, 76,7 foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.




O'g'il bolalar
76,7 %

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining tumanlar bo'yicha gender taqsimoti, % da (2021-2022-o'quv yili boshida)




SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz)



Surxondaryo viloyati





2021- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni **783** nafarni tashkil etdi.

Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Denov tumanida – **144** nafar, eng kami – Qiziriq tumanida – **19** kishi qayd etilgan.

SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollejlar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)




2021-2022-o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatida 13 ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Angor va Qiziriq tumanlarida (2 birlik) qayd etilgan.



SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, kishi (2021-2022- o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha



Surxondaryo viloyati




2021-2022- o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatidagi 13 ta kollejda 4742 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Sho'rchi tumanida (777 o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Jarqo'rg'on tumanida (26 kishi) qayd etilgan.

SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha



■ 2020/2021 ■ 2021/2022


Surxondaryo viloyati




2021-2022-o'quv yili boshida kollejlarda
261 nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat
ko'rsatmoqda

SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikumlarni tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)



Surxondaryo viloyati




Surxondaryo viloyatida 2021-2022-o'quv yili boshida texnikumlar soni 17 tani tashkil etdi, 2020-2021-o'quv yili boshiga nisbatan 3 taga ko'paydi.




SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum talabalarining taqsimlanishi, kishi (o'quv yili boshiga)

Tumanlar bo'yicha



Surxondaryo viloyati




2021-2022-o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatidagi texnikumlarda **1188 (kishi)** talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Denov tumanida (**842 kishi**), qayd etilgan


SURXONDARYO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

Tumanlar bo'yicha



Surxondaryo viloyati



2021-2022- o'quv yili boshida texnikumlarda **334** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan. Tumanlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Denov tumanidada – **63** nafar nafar qayd etildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari – Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlari – Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.